

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 63 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	



SUG'URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Xalikulova Shirin Utkir qizi

TDIU, PhD tayanch doktorant

Email: rinakhalikulovamz@gmail.com

Annotatsiya. Maqola sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy moliyaviy risklarni aniqlash va baholashga bag'ishlangan. Tadqiqotda kredit, bozor, aktuar, operatsion va tartibga solish risklari tahlil qilinib, ularning sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobiliyatiga ta'siri o'rganilgan. Moliyaviy risklarni baholashda VaR usuli, stress-testlar va aktuar hisob-kitoblardan foydalanilgan. Natijalar bozor va aktuar risklarining ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish va investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sug'urta, moliyaviy risklar, barqarorlik, aktuar hisob-kitoblar, risklarni boshqarish, Solvency II, raqamlashtirish.

Abstract. The article focuses on the analysis of the main financial risks affecting the stability of insurance companies. The study examines credit, market, actuarial, operational, and regulatory risks, as well as their impact on insurers' solvency. Financial risks are assessed using the VaR method, stress testing, and actuarial calculations. The results show that market and actuarial risks have the greatest influence on insurers' financial stability. Based on the findings, practical recommendations are proposed, including the adoption of digital technologies and diversification of investment portfolios.

Keywords: insurance, financial risks, stability, actuarial calculations, risk management, Solvency II, digitalization.

Аннотация. Статья посвящена анализу основных финансовых рисков, влияющих на устойчивость страховых организаций. В исследовании рассмотрены кредитные, рыночные, актуарные, операционные и регуляторные риски, а также изучено их воздействие на платёжеспособность страховых компаний. Для оценки рисков применялись методы VaR, стресс-тестирование и актуарные расчёты. Полученные результаты показали, что наибольшее влияние оказывают рыночные и актуарные риски. На основе проведённого анализа разработаны рекомендации по повышению финансовой устойчивости за счёт внедрения цифровых технологий и диверсификации инвестиционных портфелей.

Ключевые слова: страхование, финансовые риски, устойчивость, актуарные расчёты, управление рисками, Solvency II, цифровизация.

KIRISH

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi moliya tizimining uzluksiz faoliyat yuritishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida iqtisodiy noaniqliklar, inflyatsiya jarayonlari, raqamli transformatsiya va tartibga solish talablarining tez-tez o'zgarib borishi sug'urta kompaniyalarining to'lovga layoqatliligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan bozorlar sharoitida faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilar uchun moliyaviy risklarni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

Sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, aktuar prognozlash modellaridan foydalanish hamda nazorat organlari tomonidan tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish moliyaviy risklarni baholash va ularni kamaytirish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu bois xavflarni boshqarishda kompleks va tizimli yondashuvni qo'llash, jumladan, miqdoriy va sifat tahlil usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sug'urta faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni tahlil qilish, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan risklarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va ilmiy asoslashdan iborat.



Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- sug'urta faoliyatidagi moliyaviy risklarning mavjud tasniflarini tahlil qilish;
- moliyaviy risklarni baholash usullarini o'rganish;
- asosiy risklarning sug'urta tashkiloti barqarorligiga ta'sirini aniqlash;
- amaldagi risklarni kamaytirish strategiyalarini baholash;
- zamonaviy muammolarni inobatga olgan holda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta faoliyatidagi moliyaviy risklar masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda tizimli va ko'p qirrali yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotlarda, avvalo, sug'urta tashkilotlari faoliyatida risklarni aniqlash, baholash va minimallashtirishning zamonaviy instrumentlari markaziy o'rin egallaydi. Xususan, J. Hall moliyaviy xatarlarni boshqarish jarayonida hosilaviy moliyaviy vositalardan foydalanish sug'urta kompaniyalarining bozor risklariga nisbatan barqarorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Muallif fyuchers, opsiya va svop kabi instrumentlar orqali foiz stavkasi, valyuta va aktivlar qiymati o'zgarishidan kelib chiqadigan risklarni cheklash imkoniyatlarini batafsil tahlil qiladi. Bu yondashuv sug'urta tashkilotlari investitsiya portfellarini muvozanatlash va kutilmagan yo'qotishlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy institutlar tadqiqotlarida esa sug'urta sektoridagi risklarni tartibga solishning institutsional va me'yoriy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan Solvency II konsepsiyasi sug'urta tashkilotlarining kapital yetariligi, riskka moslashtirilgan aktivlar tuzilmasi va ichki risk-menejment tizimlarini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda zamonaviy standart sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv sug'urta kompaniyalarini nafaqat individual risklarga, balki tizimli va makroiqtisodiy xatarlarga nisbatan ham bardoshlilikni oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida O'zbekiston sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlari, institutsional rivojlanish darajasi va moliyaviy barqarorlik muammolari keng yoritilgan. N. S. Yuldashev sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholashda kapital yetariligi, likvidlik darajasi va sug'urta zaxiralari sifatining hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Muallif sug'urta bozorida risklarning yuqori darajada markazlashuvi va aktivlar diversifikatsiyasining yetarli emasligi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi. B. D. Ismoilov esa bozor risklari sharoitida sug'urta tashkilotlarining investitsiya strategiyalarini tahlil qilib, risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Uning fikricha, investitsiya portfelining tarmoqlar va moliyaviy instrumentlar bo'yicha diversifikatsiyasi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy risklarini minimallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, H. S. Umarovning tadqiqotlarida O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari va asosiy muammolari tahlil qilinib, moliyaviy risklarning kuchayishiga olib kelayotgan omillar sifatida bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqobat muhitining cheklanganligi va risk-menejment amaliyotining sustligi qayd etiladi. Muallif sug'urta faoliyatida moliyaviy risklarni kamaytirish uchun korporativ boshqaruvni takomillashtirish, ichki nazorat va risklarni monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini asoslab beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta faoliyatidagi moliyaviy risklarni baholash va minimallashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Xorijiy tajribada risklarni boshqarishning zamonaviy moliyaviy instrumentlari va me'yoriy standartlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda sug'urta bozorining institutsional rivojlanishi va ichki risk-menejment tizimlarini takomillashtirish masalalari asosiy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat mazkur ilmiy maqolada sug'urta faoliyatidagi moliyaviy risklarni baholash va ularni minimallashtirish strategiyalarini chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy risklarini o'rganishda miqdoriy va sifat usullaridan foydalanildi. Asosiy risk turlari sifatida kredit, bozor, aktuar, operatsion va tartibga solish risklari ajratib olindi. Risklarni baholashda VaR usuli, stress-testlar, aktuar hisob-kitoblar va moliyaviy tahlil metodlari qo'llanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari, O'zbekiston Markaziy banki statistik ma'lumotlari hamda IAIS va Jahon banki tadqiqotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqilgan moliyaviy risklarni minimallashtirish strategiyalari sug'urta tashkilotlari faoliyatida barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks mexanizmlar majmuasini o'z ichiga oladi. Xususan, aktivlarni

diversifikatsiyalash sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfellarida risk konsentratsiyasini kamaytirib, bozor kon'yunkturasidagi salbiy o'zgarishlarning moliyaviy natijalarga ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi. Zaxiralarni optimallashtirish esa sug'urta majburiyatlari va mavjud moliyaviy resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlab, to'lovga layoqatlilik darajasini barqaror ushlab turish imkonini beradi. Aktuar modellarni takomillashtirish sug'urta risklarini yanada aniqroq baholash, kelajakdagi majburiyatlarni prognozlash va noto'g'ri hisob-kitoblar bilan bog'liq xatarlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish sug'urta faoliyatida ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, risklarni monitoring qilish va qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligini oshirishga xizmat qilsa, Solvency II standartlarini moslashtirish sug'urta kompaniyalarining kapital yetariligi va riskka mos boshqaruv tizimlarini xalqaro talablarga yaqinlashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar moliyaviy risklarni har tomonlama baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari faoliyatida uchraydigan asosiy moliyaviy risklar kredit, bozor, aktuar, operatsion hamda tartibga solish risklari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kredit riski asosan sug'urta kompaniyalarining kontragentlari va qayta sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq bo'lib, ularning majburiyatlarni bajara olmasligi sug'urtalovchining likvidlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bozor risklari inflyatsiya darajasining o'zgarishi, valyuta kurslari tebranishi va foiz stavkalarining beqarorligi natijasida investitsiya portfeli qiymatining pasayishi ehtimoli bilan izohlanadi. Aktuar risklar sug'urta zaxiralari hajmi bilan kelgusidagi sug'urta to'lovlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi natijasida shakllanib, noto'g'ri baholangan sug'urta tariflari moliyaviy barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi. Operatsion risklar ichki boshqaruv jarayonlaridagi xatolar, axborot tizimlaridagi nosozliklar va inson omili bilan bog'liq bo'lsa, tartibga solish risklari sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi.

O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari tahlili ularning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari amaldagi me'yoriy talablar doirasida ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud barqarorlik ko'rsatkichlari sug'urta tashkilotlari uchun risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini inkor etmaydi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda risklarni boshqarishga tizimli yondashuvni joriy etish, ya'ni risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni minimallashtirish choralari o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy aktuar modellar, raqamli texnologiyalar va xalqaro tartibga solish standartlaridan foydalanish sug'urtalovchilarning moliyaviy holatini mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Sug'urtada moliyaviy risklar bo'yicha tadqiqotlar¹

Muallif	Tadqiqot nomi	Asosiy xulosalar
Hull J. (2018)	"Risk Management in Insurance"	Xatarlarni kamaytirish uchun moliyaviy vositalardan foydalanish
Yuldashev S. N. (2020)	"O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi"	Sug'urtalovchilar zahiralarni baholashning dolzarb masalalari
World Bank (2021)	"Solvency II and Insurance Risk Regulation"	Xatarlarni boshqarishda xalqaro standartlarning roli
Ismoilov B.D. (2021)	"Sug'urta kompaniyalarining investitsion strategiyalari"	Investitsion qarorlarning moliyaviy barqarorlikka ta'siri

Shunday qilib, moliyaviy risklarni samarali boshqarish sug'urta tashkilotlaridan kompleks va muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan faol foydalanish, investitsiya siyosatini ehtiyotkorlik va riskka moslik tamoyillari asosida yuritishni o'z ichiga oladi. Normativ-huquqiy bazadagi o'zgarishlar hamda innovatsion texnologiyalarning sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligiga ta'sirini kelgusida yanada chuqurroq empirik va qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy moliyaviy risklar aniqlanib, ularni tizimli tahlil qilish asosida amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, bozor va aktuariy risklar sug'urta tashkilotlari uchun eng yuqori xavf darajasiga ega yo'nalishlar ekani asoslab berildi. Ushbu risklar sug'urtalovchilarning to'lovga layoqatlilik, zaxiralarni shakllantirish sifati hamda umumiy moliyaviy barqarorlik holatiga bevosita va uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

1 Muallif tomonidan yaratilgan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy amaliyotda, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida, moliyaviy xatarlarni kamaytirish maqsadida Solvency II kabi xalqaro tartibga solish standartlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu standartlar sug'urta zaxiralarini optimallashtirish, investitsiya faoliyatini ehtiyotkorlik tamoyillari asosida tashkil etish hamda xatarlarni modellashtirish orqali baholash imkonini beradi. O'zbekistonda esa mazkur yondashuvlar hali to'liq joriy etilmagan bo'lib, sug'urta kompaniyalarining aksariyati an'anaviy boshqaruv usullariga tayanib, faoliyat yuritmoqda. Bu holat ularning iqtisodiy tebranishlarga nisbatan sezgirligini oshirmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sug'urta kompaniyalarida xatarlarni baholash jarayonida zamonaviy aktuariy modellarni keng joriy etish;
- investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish orqali bozor xatarlarini pasaytirish;
- raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, jumladan, risk-analitika, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlaridan foydalanish;

- milliy qonunchilikka xalqaro moliyaviy barqarorlik standartlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish.

Yuqoridagi tadqiqot moliyaviy xatarlarni yanada chuqurroq o'rganish, shuningdek, sug'urta sohasida raqamli transformatsiyaning xatarlar boshqaruviga ta'sirini alohida yo'nalish sifatida tadqiq etishga qaratilgan kelgusi ilmiy ishlanmalar uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hall J. Moliyaviy xatarlarni boshqarish va hosilaviy moliyaviy vositalar. – Moskva: Vilyams, 2018. – 456 b.
2. Yuldashev N. S. O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi // Moliya va Iqtisodiyot. – 2020. – №2. – B. 75–81.
3. Ismoilov B. D. Bozor xatarlarida sug'urta tashkilotlarining investitsiya strategiyalari // Iqtisodiyot axborotnomasi. – 2021. – №4. – B. 42–49.
4. World Bank. Solvency II va sug'urta sektoridagi xatarlarni tartibga solish. – Vashington: Jahon banki nashriyoti, 2021. – 112 b.
5. Umarov H. S. O'zbekiston sug'urta bozori: asosiy muammolar va rivojlanish tendensiyalari: Iqt. fan. nomz. dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 148 b.
6. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100